



UMUMIY O`RTA TA`LIM TIZIMIDAGI MAVJUD ZIDDIYATLAR VA O`QUV TARBIYA JARAYONLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Xasanov Botirali Sheraliyevich

O`zbekiston Respublikasi

Oriental Universiteti

Ta`lim menejmenti

yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim muassasalar tizimidagi mavjud ziddiyatlar va o`quv tarbiya jarayonlar samaradorligini oshirish omillari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Umumiy o`rta ta`lim muassasa, tadqiqot, o`quv tarbiya, kommunikativlik, takomillashtirish.

Shaxs kelajagini belgilash va muhim poydevor yaratishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda umumiy o`rta ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayonlarning alohida o'rni bor, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim oluvchilarda har tomonlama barkamollik sifatlari tarbiyalanadi. Barkamol shaxsni shakllantirishda o`quv tarbiya tizimning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni tanlash hamda mazkur tizimni tadqiq etish va takomillashtirishga tizimli, vaziyatli, ijodiy, refleksiv, muvofiqlashtirilgan, etnik, shaxs-faoliyat, milliy-hududiy va innovatsion yondashuv kabi texnologiyalarini qo'llash va ulardan mazmun-mohiyatiga ko'ra to'g'ri foydalanish muhim ahamiyat kash etadi. Zero, "Ta'lim - imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan buyuk mezon. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va yutuqlar ko'payishining muhim omili vazifasini o'taydi.

O`quv tarbiya jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta`minlash va samaradorligini oshirishning metodologik asoslari sifatida mazkur yondashuv



texnologiyalarini ko'rib chiqish vujudga kelayotgan vaziyatlarga bog'liq holda o'quv tarbiya jarayonlar samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Bugungi kunda o'quv tarbiya jarayon sub'yektlari uchun qo'yilayotgan talablar ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini unifikatsiya va modernizatsiya qilish; o'quv tarbiya jarayonni va sub'yektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirishda o'quv tarbiya tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi, integrativ tabiati kabi qator o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; mazkur tizimda innovatsion va hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlash yo'nalishida maxsus kurslar, o'quv-seminarlari tashkil etish va o'quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi, oila, mahalla, jamoalar boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ya'ni hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish kabi qator yo'nalishlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Shuningdek, o'quv tarbiya jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish o'quv tarbiya jarayonlarda o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligiga aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'limning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirishda, shuningdek, o'quv tarbiya tizim komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashning zaruriyatini asoslashda quyidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish zarur:

- ta'lim tizimiga yangiliklarni tatbiq etishning rivojlanish darajasi bilan ta'lim-tarbiya ishtirokchilarining bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari hamda kasbiy



qobiliyatlarini shakllantirish darajasi va ilmiy-metodik taminot o'rtasidagi nomuvofiqlik;

- o`quv tarbiya jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash asosida ularning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlarning ilmiy asoslanmaganligi;

- umumiy o`rta ta'lim tizimida tashkil etiladigan o`quv tarbiya jarayonlarning mazmunan izchilligi va uzviyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korporativ yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish texnologiyalarining ishlab chiqilmaganligi;

O`quv tarbiya jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilar belgilangan asosiy maqsad yo'nalishda o`quv tarbiya jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra o`quv tarbiya jarayonni boshqarish usullar metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida o`quv tarbiya jarayon subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etishi zarur hisoblanadi.

O`quv tarbiya jarayonlar samaradorligi mazkur jarayonning asosini tashkil etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonning natijaviyligi hisoblanadi, chunki samaradorligi tekshirilayotgan yangiliklar va tatbiq etilayotgan innovatsiyalar hamda tashkil etilayotgan innovatsion jarayon aniq bir maqsadga, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Umumiy o`rta ta'lim tizimida tashkil etiladigan o`quv tarbiya jarayonlar samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi bilan belgilanadi.

Shunday ekan, umumiy o`rta ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan o`quv tarbiya jarayonlar samaradorligi tatbiq etilayotgan yangiliklar asosida ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari, zamonaviy texnika va AKTni o'rganishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi hamda o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va



malakalari, shuningdek, pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlarining rivojlanish darajalari o'sishini belgilaydi. Umumiy o`ta ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o`quv tarbiya jarayonlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, vaziyatlarga ko'ra mazkur jarayonni ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, innovatsion metodlardan to'g'ri foydalanish, mazkur jarayon komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorlik xususiyatlarini, innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, ta'lim menejmenti tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruv subyektlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi.

Umumiy o`rta ta'lim tizimida o`quv tarbiya jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar vaziyatlarga ko'ra o`quv tarbiya jarayonlarning samaradorligini ta'minlash va rivojlantirish uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarurligini belgilaydi:

- umumiy o`rta ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab o`quv tarbiyaviy tizim sifatida yondashish; mazkur tizimdagi o`quv tarbiya jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, murakkab o`quv tarbiya tizimga xos xususiyatlarni inobatga olish;

- o`quv tarbiya jarayonlarda subyektlarning o'zaro munosabatlari hamda tarbiyaviy munosabatlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida shakllantirish;

- umumiy o`rta ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayonlarda ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

- o`quv tarbiya jarayonlarni oldindan loyihalashtirish hamda subyektlar faoliyatini rejalashtirish;

-o`quv tarbiya jarayonlarda innovatsion yondashuvlarning natijalari bo'yicha qayta aloqani yo'lga qo'yish.



- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari va tayyorgarlik darajasini aniqlash, innovatsion jarayonlarga ularni oldindan tayyorlash va ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash;

- umumiy o`rta ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayon subyektlari hisoblangan ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va innovatsiyalarga moyilligini aniqlash va motivlashtirish;

- o`quv tarbiya jarayonlarga yangiliklarni tatbiq etish va subyektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- axborotlar to'plash, ularni tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

Shuningdek, umumiy o`rta ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o`quv tarbiya jarayonlar muvaffaqiyatini ta'minlashda quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini inobatga olish zarur:

- maqsadiy samaradorlik - bu o`quv tarbiya jarayonlar subyektlari salohiyati, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarning belgilangan maqsadlarga mos kelish darajasini ifodalovchi xususiyatlar;

- ijtimoiy-psixologik samaradorlik - bu o`quv tarbiya jarayonlardagi ta'limiy muhitning holati tavsifi bo'lib, subyektlar ehtiyojlarining rivojlanishi, ularning yaratilgan shart-sharoitlardan va o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilish darajasi;

- ta'minot samaradorligi - erishilayotgan natijalarning ilmiy-metodik ta'minotga bog'liqligi;

texnologik samaradorlik - subyektlar asosiy funksiyalarining amalga oshirilish darajasi, shuningdek, subyektlar faolligini rivojlantirish samaradorligi.

Mazkur shartlarni inobatga olgan holda umumiy o`rta ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, samaradorligini ta'minlash, belgilangan maqsadlarga erishish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va natijaviylikka erishishda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish,



obyektiv baholash va muntazam rag'batlantirib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A. Umaraliyeva-Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent-2014
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. (2016). Darslik. - T.: «Navro'z».
3. Safin D.V., Musina R.G. (2 0 1 7) . Ta'lim berish va o'qishning interaktiv usullari. O'quv qo'llanma. 5-modul, - T., -43-b.
4. Obrazovanie: odnim bolshe, drugim menshe? (2017). Regionalnoe issledovanie v oblasti obrazovaniya v sentralnoy i Vostochnoy Yevrope i SNG. YuNISEF. –M., -S. 48.
5. Umarova F. va boshqalar. (2018). Samarali maktab va hamkorlik madaniyati: Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining metodik guruhlarini o'qitish modullari. – T.: «Ipak yo'li poligraf»
6. www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.Ziyonet.uz
9. www.edu.uz
10. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)